

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QISH DARSLARIDA IFODALI O'QISHGA O'RGATISH YO'LLARI

Ways to teach elementary students expressive reading in reading classes

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti 1-kurs magistratura talabasi

Tirkasheva Xumora Nurali qizi

tirkashevax@gmail.com

1st year graduate student of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Tirkasheva is the daughter of Khumora Nurali

tirkashevax@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida ifodali o'qishga o'rgatish yo'llari yoritilgan. Ifodali o'qish malakalarini shakllantirishning turli-tuman yo'llari bor. Shu bilan birgalikda turli xil metodlar orqali ham ifodali o'qishga o'rgatish mumkinligi yoritilgan. Ifodali o'qishga o'rgatish orqali o'quvchilarning o'qish tezligi oshishi, berilgan matnni yoki asarni tez va samarali o'zlashtirishlari mumkin.

Abstract: This article discusses ways to teach expressive reading to elementary school students in reading classes. There are different ways to develop expressive reading skills. At the same time, it is explained that it is possible to teach expressive reading through various methods. By teaching expressive reading, students can increase their reading speed and master the given text or work quickly and efficiently.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ifodali o'qish, o'quvchi, o'rgatish, ovoz, nafas, pauza, nutq, ohang, intonatsiya, badiiy o'qish metodi.

Key words: Elementary class, expressive reading, student, teaching, voice, breath, pause, speech, tone, intonation, artistic reading method.

Kirish

Birinchi prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov "Mamlakatimiz yoshlarini jahonning taraqqiy etgan davlat yoshlari bilan har jabhada bellasha oladigan, kerak boʻlsa ulardan oʻz ustunligi bilan ajralib turishini taʼminlashning yagona yoʻli taʼlim va tarbiyaga jiddiy eʼtibor qaratishdan iboratdir. Boshlangʻich taʼlim mazmunining ana shunday asosiy maqsadlari sirasiga oʻquvchilarni mustaqil oʻqitishga oʻrgatish ifodaviylikni kuchaytirish, dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil va ifodaviy ishlash kabilarni kiritish mumkin. Oʻquvchilarda boshlangʻich taʼlim jarayonida oʻqib oʻrganayotgan fan asoslarini mukammal egallashlari uchun ularni, birinchi navbatda, mustaqil fikrlash, mushohada yuritish koʻnikma va malakalari bilan qurollantirishimiz lozim" [1]–deydi. Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarga ifodali oʻqitish, koʻnikma hosil qilish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Boshlangʻich taʼlim uzluksiz taʼlim tizimining eng muhim va murakkab boʻgʻini hisoblanadi. Boshlangʻich sinflarda ifodali oʻqishga oʻrgatish sinflar boʻyicha oʻqish mazmunini ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish va mashgʻulotlarni olib borish kerak. Bola maktabga kelganida avval oʻqish, yozishni oʻrganadi. Asta-sekin unga mustaqil kitob tanlay boshlaydi, oʻqigan kitobini toʻgʻri baholay olish koʻnikmalari shakllantirilad

Asosiy qism:

Birinchi prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov 1997-yilda boʻlib oʻtgan tarixiy 3-sessiyada "Taʼlim toʻgʻrisida"gi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqida fikr yuritarkan "Bilim olish oʻz yoʻliga, lekin oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga oʻrgatish har bir pedagogning eng muhim va birinchi darajadagi vazifasi boʻlishi lozim" deb taʼkidlaydi. Ifodalilik koʻrgazmalilik demakdir. Ifodali oʻqish adabiyotni aniq va koʻrgazmali oʻqitishning dastlabki va asosiy formasidir. Oʻqituvchi ifodali oʻqish orqali asar mazmunini va emotsionalligini oʻquvchilarga koʻrgazmali ravishda yetkazadi. Oʻqish darslari oʻquvchilar fikrini va nutqini oʻstirish, hamda oʻquvchilar shaxsini

har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlar bilan boshqa o'quv predmetlari orasida alohida o'rin tutadi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni tushunishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq. Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Ifodali o'qishning yuksak bosqichi badiiy o'qish hisoblanadi. Unda so'z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin.

Badiiy o'qish metodi she'riy, nasriy, publitsistik, dramatik parchalarni o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan tinglovchilarga asar mohiyatini badiiy ta'sirchan tarzda ifodali o'qish usuli.

1. Kitobdan o'qib berishi mumkin.
2. Yoddan o'qib berishi mumkin.
3. O'qituvchi hikoya qilib, so'zlab berishi.
4. Teatrlashtirilgan o'qish

Ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. «Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir», deb ta'kidlaydi metodist olim M.A. Ribnikova[2]. Demak, «Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali

o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir»[3]

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.

2. Har bir tovushning to'g'ri artikulyatsiyasi va aniq diktsiya (burro gapirish) malakasini egallash.

3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish(gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg'uning o'rnini, o'qish tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda , boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchining mahoratiga bog'liq deb o'ylaynan. Chunki o'qituvchi o'quvchiga savod o'rgatish davridan boshlab ifodali o'qishga o'rgatib borsa o'quvchining nutqi va ongi tez, yaxshi rivojlanadi. Shu bilan birgalikda u kelajakda o'z o'rnini topa oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 84- bet.
2. Ribnikova M.A. Ocherki po metodike literaturnogo chteniya. – Uchpedgiz, 1945. - 125- bet.
3. Jo'rayev K. Ifodali o'qish va hikoya qilish. Toshkent: O'qituvchi, 1968. 7-9-betlar.
4. Matchonov Safo, Bakiyeva Hilola, Gulyamova Xolida, Yo'ldosheva Sharofat, Xolboyeva Gulnora . Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. Chirchiq 2020- yil.
5. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish, Toshkent: O'qituvchi, 1994.

6..Imomxo'jayev S., Zunnunov A. Ifodali o'qish asoslari, Toshkent: O'qituvchi, 1998. 236 b.

7.Ubayxojayeva R. O'quvchilarning ifodali oqish konikmalarini takomillashtirish. Boshlangich sinf oqituvchilari uchun qollanma. Toshkent: Kohinur, 1999.

8. [www. google.uz](http://www.google.uz)

9. [www. yandex.ru](http://www.yandex.ru)

10. [www. uzsiense.uz](http://www.uzsiense.uz)

11. [www. kitob.uz](http://www.kitob.uz)

12. www.arxiv.uz